



## **“Turn It Around: Markaziy Osiyo iqlim kartachalari to’dasi” loyihasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlari uchun tanlov**

San'at va matn orqali iqlim o'zgarishi muammolarini qayta ko'rib chiqadigan noyob iqlim kartachalari to'dasini yaratishda bizga qo'shiling! Agar siz Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston yoki O'zbekistondan bo'lsangiz, sizda ekologik muammolar bo'yicha o'z qarashlaringizni bildirish va yechimlarni taklif qilish imkoniyati mavjud. Sizning ovozingiz ushbu kreativ loyihaning bir qismi bo'lishi mumkin!

Markaziy Osiyo CAPS Unlock tahliliy markazi YuNESKOning Hududiy ofisi (Olmaota) va Iqlim ta'limi bo'yicha Markaziy Osiyo Alyansi (ITMOA) bilan hamkorlikda g'oyaviy bolalar va yoshlarni "Turn-It-Around: Markaziy Osiyo iqlim kartachalari to'dasi" loyihasi doirasidagi Tanlovda ishtirok etishga taklif qilishdan mamnun

**Loyiha maqsadi** — san'at va matn orqali iqlim o'zgarishiga javoblarni qayta ko'rib chiqadigan, qayta tushunadigan noyob iqlim kartachalari to'dasini ishlab chiqish. Loyiha Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston yoshlarini ekologik muammolar va ularni hal etish bo'yicha qarashlarini aks ettiruvchi materiallarni yaratishga jalb etishga qaratilgan.

### **Tanlov haqida batafsil**

#### *Materiallar mavzusi:*

- Quvvat ishlab chiqarishning iqlim o'zgarishiga ta'siri (Iqlim va Quvvat)
- Iqlim o'zgarishi oqibatlarining Markaziy Osiyodagi suv ta'minoti, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ekotizimlarga ta'siri
- Barcha tirik mavjudotlar va ularning o'zgaruvchan yashash muhiti o'rtasidagi o'zaro aloqa (Insonning Tabiat bilan Munosabati va uning atrof-muhitga ta'siri)
- Hamjamiyatlar hayoti va ularning atrofdagi Tabiat bilan uyg'unligi
- Iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillik (flora va fauna)
- Iqlim o'zgarishini sekinlashtirish uchun nima qilishimiz mumkin
- Tabiiy ekotizimlar ahamiyati

- Yoshlar iqlimiy faolligi
- Tabiiy ofatlar va Biz
- Har kim uchun barqaror hayot tarzi

#### *Ishtirok etish shartlari:*

- Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistondan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, shahar va qishloq maktablari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari hamda faol yoshlar. Yoshi - 25 yoshgacha. Biz o'g'il va qiz bolalarning teng ishtirokini ma'qullaymiz
- *Tanlov ikkita toifada o'tkaziladi:*
  - ⇒ Iqlim muammolari haqidagi tasavvurni aks ettiradigan
  - ⇒ ijodiy ishlar (rasm, fotosuratlar, mandallar, kollaj)
- Ishlarrus, qozoq, tojik, qirg'iz, o'zbek va ingliz tillarida qabul qilinadi
- Har bir muallifdan ko'pi bilan 1ta ish qabul qilinadi

#### *Muhim sanalar:*

1. Ishlarni ishlab chiqish va topshirish **2024 yil 1 noyabrdan 2025 yil 31 yanvargacha**
2. Kartachalarning yakuniy tanlovi **2025-yil 01 fevraldan 30 martgacha**

#### *Arizalarni topshirish tartibi:*

*Tanlov uchun ishlarni yaratishda SI (sun'iy intellekt)dan foydalanish qat'iyan man etiladi!!!*

1. Havola orqali onlayn-arizani to'ldirish  
[https://capsunlock.org/?page\\_id=1031u0026lang%3Duz&lang=uz](https://capsunlock.org/?page_id=1031u0026lang%3Duz&lang=uz) yoki QR kod orqali



2. Rasm yoki matnni biriktirish. Quyidagiga e'tibor berish zarur:  
**Ijodiy ishlar** JPEG yoki PNG formatida (20 MBgacha), minimal ruxsati 2800 x 3500 piksel (portret ko'rinishidagisi afzalroq) va zichligi 300 DPI bo'lishi kerak. Barcha ishlar (fotosuratlardan tashqari) skanerdan o'tkazilishi kerak.

**Matn:** qozoq, tojik, qirg'iz, o'zbek, rus yoki ingliz tillaridan birida qisqa matn (maksimal 150ta so'z) yuborishingiz kerak.

*1-ilovada* ijodiy ishlar va matnlarni yaratish bo'yicha maslahatlar/ko'rsatmalar keltirilgan.

**O'zbekistondagi bog'lanish uchun shaxs: Murod Nasirov, email: [ecolog@lenta.ru](mailto:ecolog@lenta.ru), tel: +998 90 326 63 61**

*Baholash me'zonlari:*

1. Asllik (originallik), tushuncha va ishning estetik qiymatliligi
2. Muammoning hudud yoki mamlakatda dolzarbligi
3. Mahalliy madaniyat, an'analar va milliy o'ziga xosliklarga muvofiqligi

*Finaldagilarga sovrinlar:*

Sizning muallifligingiz va xalqaro loyihaga qo'shgan salmoqli hissangizni tasdiqlovchi xalqaro sertifikat, shuningdek, noyob kartachalar to'dasi.

Finaldagi ishlar noyob "Turn It Around: Markaziy Osiyo iqlim kartachalari to'dasi" kartachalar to'dasiga qo'shiladi, u ta'lim tashkilotlarida ham, milliy siyosat darajasida ham iqlim o'zgarishini o'rgatish va muhokama qilish uchun muhim manbaga aylanadi.

### **Ijodiy ishlarni yaratishda maslahatlar/yo'naltirishlar**

- Atrofingizdan to'plangan tabiiy yoki tashlab ketilgan materiallardan foydalanib, san'at asarini yarating va sifatli fotosuratga oling
- Tabiat, osmon, yer bilan aloqangizni ifodalovchi rasm chizing yoki surat yarating
- Iqlim va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yoshlar yoki jamoat harakatlarining fotosuratlarini baham ko'ring
- Ideal o'qish joyingizni tasavvur qiling: qayerda o'qiysiz? nimani o'rganayapsiz? kim bilan o'qiysiz?
- Siz yoki hamjaniyatingiz uchun iqlim o'zgarishi haqidagi tasavvuringizni aks ettiruvchi san'at asarini yarating
- Siz, maktabingiz yoki hamjamiyatingiz Yer yuzida yashashga yaroqli kelajakka hissa qo'shish uchun qanday qadam yoki harakat qilishingiz mumkinligini tasavvur qiling
- Iqlim o'zgarishi tufayli mavjudligi xavf ostida bo'lgan har qanday tirik mavjudotni (o'simlik, hayvon, hasharot) chizing yoki tasvirlang.
- Atrof-muhit yoki iqlim halokatidan siz qanday zarar ko'rdingiz? Bu sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?

### **Matnlarni yaratishda maslahatlar**

- Omon qolishimiz va sayyoramizning gullab-yashnashi uchun nimani bilishimiz kerak?
- Siyosiy yetakchilarga sizning kelajagingiz haqida qaror qabul qilishlarida ular nimalarni bilishlari (yoki yodda tutishlari) lozimligini aytib qo'ying
- Nima sababdan iqlim ta'limi bugunoq o'quv dasturiga kiritilishi kerakligini tushuntiring
- Maktabda o'rganib bo'lmaydigan nimani tabiatdan o'rganish mumkinligi bayon eting
- O'zingizning ajdodlaringizdan / madaniyatdan o'zlashtirgan va kelajak avlodga topshirishni xohlagan saboq bilan o'rtoqlashing
- Siyosatchilarga o'zingizning "darsdan tashqari ustozlaringiz" (masalan, hayvonlar, o'simliklar, ajdodlar, texnologiyalar va h.k.) haqida so'zlab bering. Ular sizni nimaga va qanday o'rgatishgan?
- Sizni iqlim himoyasida harakatlanish uchun nima rag'batlantirishini yozing. Siz noaniq kelajak bilan to'qnash kelib, najot topganingizda, bu boshqa yoshlarga qanday qilib yordam berishi haqida o'ylab ko'ring
- Mahalliy adabiyot, she'r, pyesa yoki hikoyadan parcha yoki iqtibos toping. Bu sizning hamjamiyatingizning tabiat, atrof-muhitni yoki iqlimni muhofaza qilish bilan madaniy yoki tarixiy bog'liqligini anglatishini tushuntiring.
- Atrof-muhit yoki iqlim halokatidan siz qanday zarar ko'rdingiz? Bu sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?